

**RAQAMLASHTIRILGAN TIZIMNING QISHLOQ XO‘JALIGI  
IQTISODIYOTIGA TA’SIRI**

***Maxmatqulova Hikoyat G‘iyosiddin qizi***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi*

***Hamdamov Ahad Hamroyevich***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti, sohada so‘ngi yillarda qilinayotgan islohotlar tahlili va raqamlashtirilgan tizimning qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotiga ta‘siri haqida.

***Kalit so‘zlar:*** Qishloq xo‘jaligi, erkin bozor iqtisodiyoti, raqamli iqtisodiyot, mulkchilik shakllari, tadbirkorlik shakllari, resurslar, menejment, balans, chorvachilik, foiz stavkalari, asosiy va aylanma fondlar, amortizatsiya siyosati, rentabellik darajasi, zootexnika, subsidiyalar, investitsiyalar, unumdorlik.

***Abstract:*** This article is devoted to the economics of agriculture, analysis of reforms in this area in recent years and the impact of the digital system on the agricultural economy.

***Key words:*** Agriculture, free market economy, digital economy, forms of ownership, forms of entrepreneurship, resources, management, balance sheet, livestock farming, interest rates, fixed and working capital, depreciation policy, rate of return, livestock farming, subsidies, investments.

Qishloq xo‘jaligining asosiy vazifasi bu - ishlab chiqarishning barqaror ishlashini ta‘minlash va iqtisodiy samaradorligini oshirib borish asosida mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom-ashyoga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdir. Bugungi kunda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan oziq-

ovqat mahsulotlarining yillik istemoli 55-70 foizni tashkil qilmoqda. Chakana savdoda oziq-ovqat mahsulotlari importi salmog‘i 40 foizdan ziyod.

Qishloq xo‘jaligini erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari talabi darajasida barqaror rivojlantirish uchun qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning turli mulkchilik shakllarini va tadbirkorlik shakllarini barpo etishning zarurligi, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, sug‘oriladigan yerlar maydoni, sifati, moddiy-texnika resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, ilg‘or texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligining asosiy va aylanma fondlari, mehnat resurslari bozori, mehnat unumdorligini oshirish, investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar) bo‘yicha davlatning siyosati, qishloqda servisni rivojlantirish, xarajatlarni tejash, mahsulotlarining va xizmatlarning baholarini belgilash va qishloq xo‘jalik korxonalarining daromadlarini ko‘paytirish yo‘llarini asoslab berish maqsadga muvofiqdir.

Agrar islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning bozor shakllariga o‘tildi va mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilarning salmog‘i oshdi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish, davlat byudjeti subsidiyalari orqali kredit tizimidan foydalanish, hosilni sug‘urtalash va boshqa bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, qishloq xo‘jaligining barqaror va jadal rivoji hozircha ta‘minlangani yo‘q.[2]

Bozor iqtisodiyoti sharoiti ishlab chiqaruvchilar oldiga qator talablarni qo‘yadi, shu talablar asosida mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilishga erishganlar shu talablarni muvaffaqiyatli bajargan ishlab chiqaruvchilar hisoblanishadi. Buning uchun esa bozor ko‘nikmalaridan, bozor qonun va qoidalaridan zamonaviy bilimga ega bo‘lmoq darkor bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejment shunday fanki, u talabalarga bozor iqtisodiyoti bo‘yicha bilimlarni chuqur egallash bilan bir qatorda o‘zlari mustaqil tayyorgarlik ko‘rishlarini va o‘z mutaxassisliklariga oid adabiyotlarni va ishbilarmonliklarni, bu sohadagi fan yutuqlarini sinchiklab o‘rganib, har tomonlama o‘z bilimlarini oshirib borishlarini talab etadi.

Davlat investitsion siyosatining asosiy tamoyillari zamonaviy bosqichda mavjud foiz stavkalarining pasayishi iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiyalarning mos keluvchi samaradorligi darajasigacha pasayishi kerak; mavjud soliq tizimini soddalashtirishdek, amortizatsiya siyosatini takomillashtirish; tashqi va ichki investorlarning bevosita investitsiyalarini rag'batlantirish maqsadida investitsion risklarni pasaytirish uchun tashkiliy huquqiy nuqtai nazarlarni shakllantirish; byudjet investitsion resurslarini tanlov asosida joylashtirishdan foydalanish samaradorligini oshirish. Qishloq xo'jaligida investitsiyalarning jozibadorligini belgilovchi omillar juda katta ahamiyatga ega. Bular jumlasiga qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanish sur'atlari va istiqbollari, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining o'rtacha rentabellik darajasi, tarmoqqa xos bo'lgan investitsiya tavakkalchiligi xatarlari va qonunchilikda belgilangan investitsiya imtiyozlari va kafolatlari kiradi.[3]

Zarur umumiy yem-xashak talabi miqdori aniqlangach, yem-xashak balansi tuziladi. Balansda yem-xashakning hamma turlari ko'rsatiladi. Balansda yem-xashaklar jismoniy holdagina emas, balki ozuqa turlarida va o'zlashtiriladigan oqsil moddalari tarzida ham hisobga olinadi. Chorvachilikning ishlab chiqarish dasturini rejalashtirishda uning yem-xashakka talabini to'g'ri aniqlashga asosiy e'tibor qaratilishi kerak. Chorvachilikning yem-xashakka talabi chorva mollarining o'rtacha yillik soni va boqish me'yorlariga ko'ra aniqlanadi. Yirik chorva mollarini boqishni tashkil etishda ratsionga qo'yiladigan zootexnika talablari to'la hisobga olinishi kerak. Xo'jalikda qo'llaniladigan ratsion ham zootexnika talablari hamda iqtisodiy talablar, ya'ni chorva mollarining yuqori mahsuldorligini ta'minlash uchun turli-tuman va to'yimli bo'lishi bilan birga ratsion qiymati arzon bo'lishini ta'minlash kerak.[4]

Endi raqamli iqtisodiyot haqida so'z yuritadigan bo'lsak, o'z o'zidan savol tug'iladi. An'anaviy iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyotning farqi nimada? Masalan, xaridorga poyafzal kerak. Uni bozorga tushib o'zi bevosita tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu an'anaviy iqtisod. Telegramdagi biron savdo kanali orqali o'ziga ma'qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to'lov tizimi

orqali to'lash va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olish - raqamli iqtisodiyot deyiladi. Bu masalani eng sodda maishiy misol orqali tushuntirishdir. Aslida, hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichidamiz, uning qulayliklaridan foydalanamiz. Masalan, oyliklarimiz plastik kartalarga tushadi, elektron to'lov orqali kommunal xizmatlar, telefon, internet va boshqa mahsulot va xizmatlarga to'lov qilamiz, elektron tarzda soliq deklaratsiyasi topshiramiz, kartadan kartaga pul o'tkazamiz, uyga taom buyurtma qilamiz va hokazo.

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilib aytish mumkinki, qishloq xo'jaligiga raqamli texnologiyalarni olib kirish, xomashyo va mahsulotlarni bozorga bilvosita emas, balki bevosita kirib borishini ta'minlaydi va bu bilan ikkita natijaga erishamiz. Birinchisi, qo'ldan qo'lga o'tib qimmat narxda bozorga kirayotgan mahsulotlar arzonlashsa, ikkinchisi, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida o'sish paydo bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi „O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5853-son Farmoni.
2. Ergashev R.X., Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. "EXTREMUM PRESS" nashriyoti, 2010 y.
3. Nurmatov N.J., Ro'ziyev O.A., Gulmatov J.Q., Berdiyev S.R. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti - (o'quv qo'llanma), Toshkent, 2011, 304 b.
4. Nurmatov N.J., Ro'ziyev O.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik 2019.
5. Maxmatqulova H.G'. Borel to'plamlarida F- va G- to'plamlar. "Science Shine" International scientific journal 14(1), 2024. 98-104 b.
6. Maxmatqulova H.G'. Properties of borel sets. Innovations in Technology and Science Education 2 (14). 2023. 169-175 b.

7. Maxmatqulova H.G'. Qashqadaryo viloyatining demografik sig'imini statistik tahlili. Ustozlar uchun jurnal. 24.05.2024. 642-647 b.

8. Hamdamov A.H. Moliyaviy operatsiyalarda risklarni baholash. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi. 2024. 7-8 b.

1.